

O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mahkamova Gulhida

Namangan davlat universiteti

Filologiya fakulteti

Lingvistika: o‘zbek tili

2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov hikoyalarida qo‘llangan iboralarning semantik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: mazmun plani, frazeologizm, obrazli tasvirlash, turli komponentli iboralar.

Tilshunoslikda frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o‘ziga xos shakllanish xususiyatiga ega bo‘lgan tilning mustaqil birligi sifatida allaqachonlar tan olingan. Ular leksikadan yuqori, gapdan quyi sathda turadigan til hodisasi sifatida ham e’tirof etilgan¹. Biz nutqimizning har tomonlama mukammal va o‘ta tasirchan bo‘lishiga, tinglovchi so‘zlayotgan nutqimizning maqsad – muddaosini tezroq anglab olishiga ko‘maklashadigan bir qancha tilning tayyor materiallaridan, ya’ni til birliklaridan juda ko‘p foydalanishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida to‘la va aniq gavdalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, turmushda bo‘lib o‘tadigan turli hayotiy tajribalarni umulashtirish, jamiyatdagi ijobiy va salbiy harakat-holatlarni baholash asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalari.

El sevgan nosir O‘tkir Hoshimov hajviy hikoyalar yaratish jarayonida iboralarga juda ko‘p o‘rinlarda murojaat etgan. Uning hikoyalarida turli komponentli frazeologizmlar ko‘p uchraydi:

1. “Ko‘ngil” komponentli iboralar:

1) **kinoya-ta’kid mazmuni**. Masalan: Erkin sening to‘yanangga zormas-ku, baribir *ko‘ngliga kelgan-da!* (To‘yona operatsiyasi).

¹ Jumanazarova G. “Aql” uzvli iboralar. O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. 2-son 93-b.

2) **mamnunlik-ta'kid mazmuni**: Meni ranjidi, deb o'yladi shekilli, *ko'nglimni ko'tardi*. (Guruch operatsiyasi)

3) **xafalik-ta'kid mazmuni**.

Ko'nglini kemirayotgan g'ashlik boshini sirqiratib yubordi (Urushning so'nggi qurboni).

Iskandar birovning ko'z yoshiga toqat qilolmasdi. Hozir ham tomog'iga iliq bir narsa tiqilib, *ko'ngli cho'kdi*. (Urushning so'nggi qurboni)

2. "Yurak" komponentli iboralar: *yuragim po'killab, yuragi yorilib*.

1) **his-hayajon-ta'kid mazmuni**. Masalan: *Yuragim shuv etdi*. „Unaqa demang, akajon!" dedim (O'ldi-azizbo'ldi).

2) **siqilish-ta'kid mazmuni**. Yigirma minut kutdim. O'zidan o'zi *yuragimga g'ulg'ula tushdi*. Uylariga bora qolay, deb shundoq ko'chaga kirsam, eshiklarining oldida tumonat odam. (O'ldi-aziz bo'ldi).

3) **qo'rquv-hijolat mazmuni**. *Yuragim zirqirab* ketdi. „Paypog'iga kelgan!" (Domlaning aytganini qil...)

3. "Ko'z" komponentli iboralar:

1) **buyurish-ta'kid mazmuni**. „Ulug'!" - dedi boshliq yerdan *ko'z uzmay*, - „ulug'" degan so'zni ham qo'shib qo'ying (O'ldi-aziz bo'ldi).

2) **taajjub mazmuni**. Qanaqa pul? - Shuhrat *ko'zlarini pirpiratdi*.

4. "Kim" komponentli iboralar:

1) **kinoya-ta'kid mazmuni**. Shoirlikni *kim qo'yibdi* senga, odamni ishdan qoldirib (O'ldi-aziz bo'ldi).

2) **noma'lumlik-ta'kid mazmuni**. *Kim bilsin*, balki Tursunoyga xat-pat yuborishgan-u, men bexabar qolgandirman (Shaharlik kuyov).

5. "Aql" komponentli iboralar:

1) **tanqid mazmuni**. Dunyoda tovuqdan ahmoq parranda bo'lmaydi, odam nuqul tovuq yesa, *aqli suyulib*, tovuqmiya bo'lib qoladi! (Osmondan tushgan pul).

2) **qobiliyat mazmuni**. Dunyoda yo'llarning nega shunchalik ko'pligiga uning *aqli yetmas*, lo'lilar elati bo'lsa bir zum ham to'xtamas, qayoqqa ketishayotganini hech kim bilmasdi. (Urushning so'nggi qurboni).

Yuqoridagi keltirilgan misollarda frazeologik birliklar qahramonlarning emotsional munosabatlarini ifodalash, voqea-hodisalarning obrazli tasvirlash, uchun xizmat qilgan. Ushbu namunalardan ko'rinib turibdi-ki, yozuvchi hech bir o'rinda tushunarsiz, yoki notanish iboralardan foydalanmagan. Adib xalqchil, mazmun doirasi keng, xalqchil birikmalardan mahorat bilan foydalangan. Frazeologizmlar mohir so'z san'atkorlari qo'lida har gal yangi emotsional bo'yoq kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yo‘ldoshev.M . Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, “Fan” 2006.
2. X.Berdiyev, R.Rasulov, B.Yo‘ldoshev. O‘zbek frazeologiyasidan materiallar. Sam., Birinchi qism, 1976, 4-7-betlar.
3. O‘tkir Hoshimov. Hikoyalar to‘plami.